

## **OILA - ASARIDA OILA AXLOQI MASALALARINING YORITILISHI**

**Pardayev Abdurahim Chori o'g'li**

O'zbekiston Milliy universiteti

Falsafa kafedrası stajyor-o'qituvchisi

e-mail: [choriyevich94@mail.ru](mailto:choriyevich94@mail.ru)

tel: 97 140 06 00

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada Oila asarida oila axloqi, oilaviy munosabatlar va farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalarning badiiy hamda falsafiy jihatdan yoritilishi tahlil qilingan. Asarda oilaning jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni, sog'lom oilaviy muhitni shakllantirish omillari hamda er-xotin o'rtasidagi o'zaro hurmat, ishonch va mas'uliyat masalalari keng yoritib berilgan. Muallif oila mustahkamligi jamiyat barqarorligining asosiy omillaridan biri ekanligini ilmiy-nazariy qarashlar asosida izohlaydi. Shuningdek, maqolada farzand tarbiyasida ota-onaning mas'uliyati, yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyati ochib berilgan. Jadidchilik g'oyalari asosida ilgari surilgan ma'rifatparvarlik qarashlari ham tahlil qilinib, asarning bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolayotgani asoslab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** oila, oila axloqi, oilaviy munosabatlar, farzand tarbiyasi, ma'naviy qadriyatlar, jadidchilik, ma'rifatparvarlik, jamiyat taraqqiyoti, axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, Oila, Abdurauf Fitrat.

### **ANNOTATION**

*This article analyzes the artistic and philosophical interpretation of family ethics, family relationships, and child upbringing issues reflected in Oila. The work highlights the important role of the family in social development, the factors influencing a healthy family environment, and the issues of mutual respect, trust, and responsibility between spouses. The author explains that the stability of the family is one of the key foundations of social stability and moral progress. The article also discusses the responsibility of parents in child upbringing and the significance of national and universal values in educating a spiritually mature generation. Furthermore, the enlightenment ideas promoted through Jadidism are examined, and the relevance of the work in contemporary society is scientifically justified. The article emphasizes the educational and moral importance of the work in strengthening family values and improving the spiritual culture of young people.*

**Keywords:** *family, family ethics, family relations, child upbringing, spiritual values, Jadidism, enlightenment ideas, social development, moral education, national values, Oila, Abdurauf Fitrat.*

### АННОТАЦИЯ

*В статье анализируются художественные и философские аспекты освещения вопросов семейной этики, семейных отношений и воспитания детей в произведении Oila. В произведении раскрывается важная роль семьи в развитии общества, факторы формирования здоровой семейной среды, а также вопросы взаимного уважения, доверия и ответственности между супругами. Автор объясняет, что прочность семьи является одной из основных основ общественной стабильности и нравственного развития. В статье также рассматриваются ответственность родителей в воспитании детей и значение национальных и общечеловеческих ценностей в формировании духовно зрелого поколения. Кроме того, анализируются просветительские идеи джадидизма, отражённые в произведении, и научно обосновывается его актуальность в современном обществе. Подчёркивается воспитательное и нравственное значение произведения в укреплении семейных ценностей и повышении духовной культуры молодёжи.*

**Ключевые слова:** *семья, семейная этика, семейные отношения, воспитание детей, духовные ценности, джадидизм, просветительство, развитие общества, нравственное воспитание, национальные ценности, Oila, Абдурауф Фитрат.*

### KIRISH

Bugungi globallashuv va ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan davrda oila masalasi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Oila insonning ilk tarbiya maskani, ma'naviy kamolot manbai hamda millatning ijtimoiy va axloqiy tayanchi hisoblanadi. Shu bois ham oiladagi sog'lom muhit, farzand tarbiyasi, er-xotin o'rtasidagi o'zaro hurmat va mas'uliyat masalalari bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Oila jamiyatning tayanchi, ma'naviyat beshigi va inson tarbiyasining birinchi maskanidir"<sup>1</sup>. Mazkur fikr oilaning jamiyat hayotidagi beqiyos o'rnini yaqqol ifodalaydi.

O'zbek jadid ma'rifatparvarlari orasida Abdurauf Fitrat oilaga oid masalalarni chuqur ilmiy va ma'naviy asosda tahlil qilgan mutafakkirlardan biridir. Uning Oila asarida oilaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini, oilaviy axloq, farzand tarbiyasi, milliy

<sup>1</sup> Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 276.

qadriyatlar va ma'rifatparvarlik g'oyalari keng yoritilgan. Fitrat oilani millat kelajagini belgilovchi asosiy omil sifatida baholab, sog'lom va ma'rifatli oilagina barkamol avlodni voyaga yetkazishini ta'kidlaydi. Ayniqsa, uning "Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shunchalik kuchli va mustahkam bo'ladi"<sup>2</sup> degan fikri bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mazkur maqolada Fitratning "Oila" asarida oila axloqi masalalarining yoritilishi, oilaviy munosabatlarning ma'naviy-axloqiy asoslari hamda asardagi ma'rifatparvarlik g'oyalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, oilaning jamiyat barqarorligi va yosh avlod tarbiyasidagi o'rni zamonaviy qarashlar asosida yoritib beriladi.

«Oila» asarida oilaviy xayotning islohotidan bahs yuritilib, adib najot yo'llarini axtaradi. Fitratning oilaga nisbatan qarashlari zaminini Qur'onda shu masala bo'yicha olg'a surilgan fikr va g'oyalar tashkil etadi.<sup>3</sup> Shuning uchun xam bu kitob o'z vaqtida taraqqiyparvar yoshlar tomonidan samimiy qarshi olingan. Oila asosini to'g'ri qurmasdan va yosh avlodni to'laqonli to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini tarqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas. Oxir oqibatda millat taqdiri uning oilasining xolatiga bog'liq. Bu g'oya Fitrat asarida o'z ifodasini topgan: "Xar bir millatning saodati va izzati albatta shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik anashu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat xam shuncha kuchli va muazzam bo'ladi." Oila, Fitratning talqinida, uch muhim komponentdan iborat:

- 1)Er.
- 2)Xotin.
- 3)Farzandlar.

Anashu uch komponentning xar biri nozik, spesefik jihatlariga ega. Chunki, er va xotin uchun oila qurish asosiy muammo bo'lishi bilan birga, bu masala o'zining muxim qirralariga xam ega. Fitrat oilaning xuquqiy asoslarini yoritib, berishdan avval, masalaning g'oyat muhim tomonlarini xam yodda saqlaydi. Xayotning farzandlar shaklida davom etishi, Fitrat nazarida, faqat oila emas, balki millatning xam kuch-qudratini, sha'n-shavkatini bildiruvchi omildir: <sup>4</sup> "Masalan, Belgiyaliklar va inglizlarni olib ko'raylik, xar ikkala millat a'zolari ishchan va xarakatchandir. Lekin

<sup>2</sup> Abdurauf Fitrat. Oila. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019. – B. 8.

<sup>3</sup> Qur'oni Karim "Baqara" surasi, 187-oyat.

<sup>4</sup> Abdurauf Fitrat. Oila. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019. – B. 8.

ko‘z oldimizga ularni keltirib, muxokama qilsak, ko‘ramizki, ingliz millati belgiya xalqidan yuz barobar ko‘proq kuch va shavkati e‘tiborga egadir. Qizig‘i shundaki, ingliz va belgiyalik millatlar o‘rtasida ilmu-amal va sa‘y xarakterda farq yo‘q. Unda shavkatu shon va izzat bobida shuncha farq qayerdan? Bu savolning javobini xar ikkala millatning umumiy sonidan topsa bo‘ladi, ya‘ni ingliz milatining axolisi 44 ming, belgiyaliklar esa 7,5 mingga yetadi.<sup>5</sup> Shuning uchun xam ingliz millatining umumiy sa‘y-xarakati va amali belgiyalikning sa‘y-xarakati va amalidan bir necha marotaba unumlidir. Ingliz millatining kuchi va izzati, e‘tibori xam ana shu sa‘y va amallarining natijasidir. Shundan kelib chiqib, Ovrova xukmdorlari o‘z millatlarining sonini ko‘paytirishga xarakat qiladilar. Ovrova olimi o‘z xalqining nufuziga putur yetsa, : “Ey! Mamlakatimizning sharafi va e‘tibori qolmayapti, Millatimiz nest-nobud bo‘ladi. Sharafimizni, vatan va millatimizni himoya qilish uchun farzand yetishtiringiz,”- deya dod soladi”.

Ko‘ramizki, oila va farzand masalasi erkak yo ayolning xususiy masalasi emas. Farzand nafaqat ota-ona xayotining davomi balki ayni paytda millatning xam, iqtidori, obro‘ va e‘tiborini belgilaydigan zanjir xalqasidir. Millat esa vatan, mamlakatning yuragi, demak, millat son jihatidan qanchalik ko‘p bo‘lsa u yashayotgan vatanining xam kuch-kudrati shu qadar ziyod bulishi tabiiy.

Oila masalasi:

- 1) Millat.
- 2) Mamlakat.
- 3) Kishilik jamiyati, degan uchlikni ta‘minlab turuvchi muxim bir xalqadir.

Fitrat talqinida son, miqdor sifat degani emas, xalqning soni ko‘p bo‘lishi, ammo uni tashkil etuvchi kishilar ishyoqmas, tebsa-tabranmas kishilar xam bo‘lishi mumkin. O‘z saodati, kelajagi, yaxshi yashashi, osuda xayot egasi bo‘lishlik o‘sha millat kishisining xarakatchanligiga xam bog‘liqligini aytadi.” Qaysi millatning nomoyondalari g‘ayratli, shijoatli bo‘lsalar, qo‘l oyog‘i kuchli va chaqqon, xamma a‘zolari sog‘ va faol izzat va e‘tibor soxibi bo‘ladilar” deya ta‘kidlab o‘tadi. Fitrat millatning sifati uning miqdori bilan xam bog‘liq tomonlarini anglatgan. Buning uchun qayg‘urgan xam. Oilada millatning qadri va sha‘nini belgilovchi xarakatlar, avvalo er va xotinning iffat, diyonati bilan bog‘liq ekanini xayotiy misollar bilan anglatadi.

Abdurauf Fitratning axloqiy qarashlari, milliy o‘zlikni anglash haqidagi g‘oyalari asosan o‘zining “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” nomli asarida berilgan. Ushbu asar 1914 yilda yozilgan. “Oila” asari o‘sha davr shiddatini o‘zida

<sup>5</sup> Ma‘lumotlar XX asr boshidagi Yevropa aholisi statistikasi asosida Abdurauf Fitrat tomonidan Oila asarida keltirilgan. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019. – B. 30.

mujassamlashtirgan asar hisoblanadi. U o'zgacha bir shiddatli uslub bilan yozilgan. Sababi, o'sha davr shiddati qaysidir ma'noda badiiy asarlarga ham ko'chgandi. "Oila" asarida ham tanqidiy ruh, ham da'vat ruhi kuchli. Fitrat ona Turkistonni ozod ko'rishni istaydi, buning uchun har bir turkistonlik oila, axloq, a'mol va erk o'chog'i bo'lmog'i lozim. Mutafakkir yangi oilani ana shu tartibda qurishga da'vat etadi. Har jihatdan sog'lom bo'lgan oila yetishtirgan farzandlargina millatni yuksakka ko'tara olishini, uni istibdoddan qutqarishini aytadi: "Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog'lom jismu tan, aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol-aslahamiz sinib, zang bosib chirib ketgan. Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor...", — deydi alam bilan Fitrat.<sup>6</sup>

Darhaqiqat, davlatimiz kelajagi ham, rivojlangan mamlakatlar orasida tutgan mavqei va salohiyati ham, dunyoqarashi, bilimi, aql-zakovati, Vatan, jamiyat va oila oldidagi burchi va mas'uliyatini teran anglashi, bugungi avlodga bog'liqdir. Zero bilim va kasb-hunarga qiziqish, ota-onaga xurmat, do'stga sadoqat, mehr-shafqat, halollik va poklik kabi axloqiy fazilatlar oilada shakllanadi va sayqal topadi.

Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asari oilaning paydo bo'lishi, uning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, oilada amal qilinadigan ichki tartib va qoidalarga bag'ishlangan. Ayniqsa, asarning "Uylanish yoki uylanmaslik xususida", "Qalin (puli) va to'y qanday bo'lishi lozimligi haqida", "Er-xotinning qanday yashamoqliklari xususida", "Oilaning maishati va idorasi" qismlarida bu masalalar xususida atroflicha fikr yuritilgan.

Abdurauf Fitrat ushbu asarida har bir yangi oila uchun qo'llanma vazifasini o'tashi mumkin bo'lgan masalalarni yoritadi. U vatanparvarlik va millatparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, kitobning birinchi qismiga, ma'lum ma'noda me'yoriy dasturilamal tarzida tartib beradi. Undan har bir yangi oila qurmoqchi bo'lgan turkistonlik kichik hajmdagi axloqiy-maishiy, gigiyenik-salomatlik qomusi sifatida foydalanishi mumkin edi. Bundan tashqari, asarda oilaning moddiy tomonlari, tashkil topgandan boshlab, buzilishigacha bo'lgan holatlarning axloqiy asoslari to'g'risida ham to'xtalib o'tadi. Bu jihatlarni o'sha davr nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak juda ijobiy jihat hisoblanadi. Chunki, bu davrda Turkistonda xali medisina unchalik rivojlanmagan, kishilarning turmush madaniyati ham u qadar yuqori emas edi. Fitrat ko'plab xorijiy davlatlarda bo'lganligi sababli, u yerdagi ijobiy, o'rganish zarur bo'lgan, turmush tarziga oid juda ko'p tajriba ortirgan edi.

Er-xotin va farzandlardan iborat, bir shaxs boshchiligida, birga yashovchilar, Fitratning fikricha, oilani tashkil etadi. Asarda har bir oila manfaatini ximoya qilish maqsadida turli qonunlar ishlab chiqilgani, ular «manzil tadbir» (ro'zg'or tebratish

<sup>6</sup> Abdurauf Fitrat. Oila. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019. – B. 44.

tadbiri) deb atalgani ta'kidlanadi. Shu ma'noda, muayyan mamlakat aholisi axloqsizlik oqibatida oilaviy munosabatlarini zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l bersa, shu millatning saodati ham, hayoti ham shubha ostida qoladi.

Oilada ayollarga munosabat haqida to'xtalib, Fitrat quyidagi rivoyatni keltiradi: "Oysha (r.a.) rivoyat qiladilar. Nabiy alayhissalom dedilar: "Eng komil mo'minlar xushhulq va oilasi bilan lutf ila munosabat qiladiganlardir. O'z xotinlariga mardikarim yaxshilik qiladi va mardilaim yomonlik".<sup>7</sup> Fitrat nazarida mamlakat taqdiri va istiqboli barkamol farzandlarni tarbiyalash bilangina belgilanmaydi. Mazkur asarda millatning ma'rifatparvarligi ayollarga bo'lgan munosabatda ham yorqin namoyon bo'lishi qayta-qayta ta'kidlangan.

Kitobning ikkinchi qismi farzand tarbiyasiga bag'ishlangan. Fitrat ham tarbiyani an'anaviy yo'nalishda talqin etadi: jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya. Ana shu uch tarbiya uyg'unligida haqiqiy inson kamol topadi, deb hisoblaydi muallif. Kitobning bu qismida Fitrat, ma'lum ma'noda, o'ziga xos axloqiy tarbiya nazariyasini taqdim qiladi. U ixtiyor erkinligi muammosini mayl tushunchasi orqali o'rtaga tashlaydi: baxt mayli, faoliyat mayli, aloqa mayli, boshqalarga mehr-muhabbat mayli va h.k. Bularning hammasida ham insonni jamiyat a'zosi sifatida, ijtimoiy mavjudot sifatida olib qaraydi. Shuningdek, u izzat-nafs, ayniqsa, iroda masalasiga alohida to'xtalib o'tadi. "Iroda va ixtiyor" sarlavhasi ostidagi kichik bobda Fitrat farzandni irodali qilib tarbiyalashga da'vat etadi, iroda tarbiyasining to'rt bandedan iborat qoida-bos-qichlarini taklif etadi. Bolani irodali qilib tarbiyalashda otanonaning zo'ri emas, balki bolaga beriladigan muayyan erkinlik muhim ekanini ta'kidlaydi. "Ota-onalarning haq-huquqlari" bobida ham balog'atga yetgan farzandning erkinlik darajasi haqida fikr yuritiladi.

Fitrat millat taqdirini, uning baxt-saodatini jamiyatdagi oilaviy munosabatlar kamoli bilan bog'laydi. Uning fikriga ko'ra, dunyoda izzat va saodat tolibi bo'lmagan birorta qavm yo'q. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shunchalik kuchli va mustahkam bo'ladi.<sup>8</sup> Fitrat millat kamchiligi sifatida iqtisodiy savodsizlikni keltiradi. Masalan, "Qalin (puli) va to'y qanday bo'lishi lozimligi haqida" deb nomlangan bobida bizning odamlar butun umr yiqqan maldunyosini bir kunlik to'yga sarflashini, qayerdagi bemaza orzu-havaslariga berilib isrofgarchiliklarga yo'l qo'yishini qattiq tanqid qiladi. Mutafakkir to'yni kichik davrada isrofgarchiliksiz o'tkazib, undan qolgan mablag'ni yoshlarni ilm olishlariga, sog'liklarga sarflashlarini ta'kidlaydi. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, Fitratning ushbu fikrlari xali ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Sababi, bugun ham

<sup>7</sup> Sunan at-Termiziy, "Rizo" kitobi, 11-bob; shuningdek qarang: Riyozus-solihiyin. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2021. – B. 214.

<sup>8</sup> Abdurauf Fitrat. Oila. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019. – B. 8.

jamiyatimizda bemani orzu-xavaslar deb, isrofgarchiliklarga ko'p pul sarflayotgan kimsalar xali ham mavjud. Iqtisodiy savodsizlik ko'plab ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishini ham muallif alohida ta'kidlaydi. Masalan, hamma pul to'yga sarflangandan keyin yosh oilalar ro'zg'or tebratishga qiynaladi. Qarz-xavola qilib o'tkazilgan to'yni qarzlari to'lanadimi yoki ro'zg'or tebratiladimi. Bu kabi muammolar bugun ham yo'q emas.

## **XULOSA**

Umuman olganda, Fitratning "Oila" asari tom ma'noda yosh avlod uchun hayotiy qo'llanma bo'luvchi tarbiyaviy asardir. Lekin unda pedagogik-didaktik uslub emas, jangovar chorlov uslubi ustun. Fitrat uchun yuksak axloqiylik erk va erksevarlik bilan mustahkam bog'liq. Turkiston va turkistonlikni ozod ko'rish, ya'ni milliy mustaqillik mafkurasi kitobning ruhiga singdirib yuborilgan. Uni o'qigan kishi nafaqat axloqiy fazilatlar nimalardan iborat va ularga qanday erishish kerakligini, balki milliy ozodlik, shaxsiy erkinlik nima-yu, uni qanday qilib qo'lga kiritish mumkinligini anglab oladi. Shu bois mutafakkir-jadid Abdurauf Fitratning "Oila" asari Turkiston milliy Uyg'onishida benihoya katta rol o'ynadi, deyish mumkin. Ayni paytda u hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan ajoyib axloqiy-ma'rifiy risola sifatida alohida e'tiborga molik.

Fitratning axloqiy qarashlarining dolzarbligi shundaki u o'z davrini axloqiy hayotini o'zgartirmoqchi va insonlarni o'z davrining milliy ozodlik g'oyasiga chorlaydi. Uning bizga qoldirgan merosi chinakamiga bizning amaliy faoliyatimizga to'g'ri keladigan axloqiy ongimizni, o'zimizni tutishimiz, xatti-harakatlarimiz, muomala odoblarimizni yaxshilash va boyitishga katta xissa qo'shadi. Fitratning "Oila" asari o'z davrining va bugungi kun insoniyatining ma'naviy dunyosini boyitishda katta rol o'ynaydi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Shavkat Mirziyoyev. Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnoma. – Toshkent, 2023.
2. Shavkat Mirziyoyev. "Inson qadri uchun, inson baxti uchun" tamoyili asosida taraqqiyot. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
5. O'zbekiston Respublikasining "Oila kodeksi". – Toshkent: Adolat, 2022.

6. O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi. Oilaviy qadriyatlar va tarbiya masalalari. – Toshkent, 2023.
7. Abdurauf Fitrat. Oila. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019.
8. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020.
9. Mamatov S. Jadidchilik va milliy tarbiya masalalari. – Toshkent: Akademnashr, 2021.
10. Karimov B. Oila ma’naviyati va axloqiy tarbiya. – Toshkent: Tafakkur, 2022.
11. Rasulov A. Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni. – Toshkent: Fan, 2023.
12. Ismoilov N. Jadid adabiyoti va ma’rifatparvarlik g‘oyalari. – Toshkent: Universitet, 2024.